

openbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>I-99</u>
	Sana: "№ <u>22</u> " <u>oktabr</u> <u>2024</u> yil

“Open bank” aksiyadorlik jamiyati
Kuzatuv kengashining
2025-yil 21 - oktabr dagi
21-10/1 -sonli yig'ilish bayonnomasiga
12 -ilova

**«OPEN BANK» AKSIYADORLIK JAMIYATIDA
KOMPLAYENS TAVAKKALCHILIGINI BOSHQARISH
SIYOSATI**

Toshkent – 2025-yil.

“Open bank” aksiyadorlik jamiyatida komplayens tavakkalchiligini boshqarish siyosati (keyingi o‘rinlarda Siyosat deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuniga va boshqa qonunchilik hujjatlariga hamda “Open bank” aksiyadorlik jamiyati Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Siyosat “Open bank” aksiyadorlik jamiyatida (keyingi o‘rinlarda Bank deb yuritiladi) komplayens tavakkalchiligini boshqarishning umumiy qoidalarini, maqsadini, vazifalarini, uslublarini hamda tizimini belgilab beradi.

2. Siyosatning asosiy maqsadi Bank tomonidan qonunchilik hujjatlariga rioya qilinmaslik hamda Bank mahsulotlarini taqdim etishda biznes yuritishning umumiy qabul qilingan etika qoidalarini tamoyillariga amal qilmaslik oqibatida Bankka nisbatan sanksiya va choralar ko‘rilishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy holatlar bilan bog‘lik tavakkalchiliklarni minimallashtirdan iborat.

3. Komplayens tavakkalchiligini boshqarishning asosiy vazifasi qonunchilik hujjatlari, axloqiy kodekslar va ichki qoidalarda belgilangan talablarga rioya etilishini ta’minlashda ko‘maklashish hisoblanadi.

Shuningdek, Bankning tarkibiy tuzilmalarining ichki qoidalariga va hujjatlariga muvofiq birgalikda samarali ish tashkil etish, shuningdek, xodimlar, mijozlar, hamkorlar va kontragentlarga bo‘lgan tegishli talablarni nazarda tutadigan tizimning biznes jarayonlarini amalga oshirishning tashqi va ichki shartlarini yaratish kabi vazifalardan ham iborat.

4. Mazkur Siyosatda quyidagi atamalar va ta’riflardan foydalaniladi:


komplayens tavakkalchiligi – qonunchilik hujjatlari, bankning ichki hujjatlari, shuningdek bank faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan xorijiy mamlakatlarning hujjatlariga rioya etilmasligi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zarar (yo‘qotish) ko‘rish va rejalashtirilgan daromadni olmaslik ehtimolligi;

tavakkalchilik chegaralari – komplayens tavakkalchiligi darajasini (miqdorini) chegaralash maqsadida risk-appetitning Bank faoliyati yo‘nalishlari, mahsulotlari va boshqa mezonlar kesimida miqdoriy taqsimlanishi;

tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi – Bank faoliyatiga oid bo‘lgan komplayens tavakkalchiligini tizimli aniqlash, o‘lchash, monitoring va nazorat qilish, hisobotini yuritish hamda kamaytirishga qaratilgan, shuningdek Bankning boshqaruv organlari va tavakkalchiliklarni boshqarish boshqarmasining o‘zaro munosabatlari tizimi.

axborotdan foydalanish – maxfiylik yoki axborotni oshkor qilish tamoyillariga mos keluvchi, xodimlarning o‘z xizmat vazifalari doirasida Bankka, aksiyadorlarga, investorlarga, hamkasblariga, mijozlariga, kontragentlariga taaluqli bo‘lgan ma’lumotlardan foydalanish;

insayderlik ma’lumoti – oshkor etilishi Bankning qimmatli qog‘ozlarining



bozor qiymatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan muhim, oshkor etilmaydigan rasmiy ma'lumotlar.

5. Komplayens tavakkalchiligini boshqarish tizimini yaratish va amalga oshirishda quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

ish yuritish etikasining meyorlariga muvofiqlilik;

o'z vaqtida va obyektiv tarzda kamchiliklarni bartaraf etish;

qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilish;

qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish tavakkalchiliklarini doimiy baholash;

qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilinmaganlik uchun jazo muqarrarlilik.

2-bob. Komplayens tavakkalchiligini boshqarish

6. Bankda komplayens tavakkalchiligini aniqlash, baholash, monitoring qilish, nazorat qilish va kamaytirishga xizmat qiluvchi komplayens tavakkalchiligini boshqarish tizimi joriy qilinadi hamda tizimning yaxlitligi va samaradorligi ta'minlanadi.

7. Bankda komplayens tavakkalchiligini boshqarish tizimi:

Bank faoliyatining barcha yo'nalishlarida komplayens tavakkalchiligini boshqarishning qamrab olinishi;

komplayens tavakkalchiligi xolisona va o'z vaqtida aniqlanishi, baholanishi hamda monitoring qilinishini, ular bo'yicha hisobot tayyorlanishi, ularning nazorat qilinishi va kamaytirilishi;

komplayens tavakkalchiligini boshqarish jarayonlarining to'liqligini va hujjatlashtirilishi ta'minlanadi.

8. Komplayens tavakkalchiligini aniqlash va baholash uchun quyidagi ma'lumotlardan foydalanish lozim:

nomaqbul hatti-harakatlar to'g'risida xodimlardan olingan ma'lumot;

ichki operatsion tavakkalchilik holatlari bazasi;

mijozlarning shikoyatlari;

ichki audit boshqarmasi va tashqi auditorlar hisobotlari;

Markaziy bank va boshqa tegishli organlardan olingan ma'lumotlar;

komplayens tavakkalchiligini boshqarish uchun mas'ul tarkibiy tuzilmalar xodimlari tomonidan boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar.

9. Komplayens tavakkalchiligi yuzaga kelganda, shu jumladan qonunchilik hujjatlari talablari buzilganda Bank boshqaruv organlarini o'z vaqtida xabardor qilinishi lozim.

10. Bankda komplayens tavakkalchiligini boshqarish tizimi komplayens tavakkalchiliklarni aniqlash va baholash, komplayens tavakkalchiliklar oqibatlarini yumshatishga qaratilgan jarayonlar va qo'llanmalar (stanlartlar) ishlab chiqish, muhim voqealikalarni boshqarish, komplayens tavakkalchiliklar yuzasidan treninglar va seminar-o'quvlar tashkil etish, komplayens tavakkalchiliklar monitoringi kabi



yo'nalishlarga asosiy e'tibor qaratiladi.

11. Komplayens tavakkalchiliklarni aniqlash hamda baholash quyidagicha amalga oshiriladi:

komplayens tavakkalchilik vujudga kelishi mumkin bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha ustuvorlikni ko'rib chiqish, aniqlash va joylashtirish, shuningdek, tegishli standartlar, jarayonlar va qarorlar bo'yicha tavsiyalarni taqdim etish;

mehnat munosabatlari yoki bank mahsulotlarini taqdim etishda mijozlar (kontragentlar) tomonidan qonunchilik hujjatlari yoki standartlarning buzilish holatlarini ko'rib chiqish va aniqlash;

firibgarlik va korrupsiya holatlari, qonunga xilof va Bankning ichki qoidalari va standartlariga zid harakatlarni ko'rib chiqish va tahlil qilish.

12. Komplayens tavakkalchiliklar oqibatlarini yumshatishga qaratilgan jarayonlar va qo'llanmalar (standartlar) ishlab chiqish komplayens tavakkalchiliklarni aniqlash hamda baholashga asoslangan holda sezilarli tavakkalchiliklarning oqibatlarini yumshatish uchun aniq standartlar va qo'llanmalarni hamda chora-tadbirlarni ishlab chiqish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, nazorat kiluvchi organlarning maxsus talablari ham hisobga olinadi.

13. Komplayens sohasida muhim voqealiklar haqida quyidagilardan birortasi mavjud bo'lganda Bank boshqaruv organlariga xabar beriladi:

og'ir jinoyat yoki firibgarlik harakatlarida;

manfaatlar to'qnashuvi holatlarida;

korporativ etika kodeksi talablarining buzilishida;

Bank ish tamoyillarining buzilishida;

qonunchilik hujjatlari, qoidalar va standartlarni buzilish holatlarida.


14. Muhim voqealiklar yuzaga kelganda kelgusida ushbu kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida qoida buzilishi bo'yicha javobgarlar tomonidan holatlarni bartaraf etish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirilishi talab qilinadi, ushbu voqealiklardan to'g'ri xulosa chiqarish maqsadida tahlillar o'tkaziladi va tavsiyalar beriladi, shu bilan birga kelajakda yuzaga kelmaslik uchun tegishli nazorat tadbirlarini joriy qilinadi.

15. Komplayens tavakkalchiliklar yuzasidan treninglar va seminarlar tashkil etish xodimlarning komplayens-tavakkalchiligi bilan bog'lik masalalar bo'yicha ma'lumotlar bilan xabardor qilish maqsadida o'quv dasturi ishlab chiqiladi va doimiy ravishda tashkil etiladi.

16. Komplayens tavakkalchiliklar monitoringi aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni bajarilishini monitoring qilinadi.

3-bob. Komplayens tavakkalchiligini boshqarish jarayonining ishtirokchilari, ularning javobgarligi va vakolatlari

17. Bankda komplayens tavakkalchiligini boshqarishning lozim darajada



ishlashini ta'minlash maqsadida vakolatlar va javobgarliklarni taqsimlashning quyidagi tizimi o'rnatiladi:

- Bank Kuzatuv kengashi;
- Tavakkalchiliklarni boshqarish qo'mitasi;
- Bank Boshqaruvi;
- Komplayens va ichki nazorat boshqarma;
- Tavakkalchiliklarni boshqarish boshqarmasi;
- Yuridik boshqarma;
- Boshqa aloqador tarkibiy tuzilmalar.

18. Yuqoridagi bandda keltirib o'tilgan tuzilmalarning funktsiya va vazifalari, vakolatlari va javobgarliklari ushbu tuzilmalarning Nizomlarida ko'rsatib o'tiladi.

4-bob. Axborot almashinuvi va hisobot taqdim etish tartibi

19. Komplayens tavakkalchiligini boshqarishga mas'ul tarkibiy bo'linma komplayens tavakkalchiligiga oid hisobotlarni Bank Kuzatuv kengashi, Bank Boshqaruvi va Tavakkalchiliklarni boshqarish qo'mitasiga davriy ravishda kiritiladi.

20. Komplayens tavakkalchiligiga oid hisobotlar quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

qonunchilik hujjatlari va Bankning ichki qoidalari va hujjatlari talablari buzilganligini;

xodimlar tomonidan Bankning odob-axloq kodeksi talablari buzilishini;

Markaziy bank va boshqa tegishli organlarga ishonchli bo'lmagan hisobotlar berilishini;

qonunchilik hujjatlaridagi o'zgarishlarning Bank faoliyati uchun keltirib chiqaruvchi oqibatlarini;

manfaatlar to'qnashuvi holatlarini;


komplayens tavakkalchiligini boshqarish uchun mas'ul tarkibiy tuzilma tomonidan Bank xodimlari uchun o'tkazilgan o'quv mashg'ulotlarini.

21. Komplayens tavakkalchiligi bo'yicha muhim voqealilar aniqlanganda bu haqda zudlik bilan buzilish sabablari va tegishli choralar qo'llash bo'yicha takliflarni ko'rsatgan holda Bank Kuzatuv kengashiga va/yoki Tavakkalchiliklarni boshqarish qo'mitasiga hamda Bank Boshqaruviga xabar beriladi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

22. Bank Kuzatuv kengashi va/yoki Tavakkalchiliklarni boshqarish qo'mitasi Bank Boshqaruvi bilan birgalikda ichki va tashqi vaziyatlarning o'zgarishini inobatga olgan holda, komplayens tavakkalchiligi tizimini doimiy ravishda monitoring qiladi va samaradorligini baholab boradi, shuningdek samarali ishlashini ta'minlash uchun zaruratga qarab uni mustahkamlaydi.



23. Mazkur Siyosatga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.



openbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>I-98</u>
	Sana: "№ <u>22</u> " <u>oktabr</u> 20 <u>24</u> yil

24. Mazkur Siyosat bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

25. Ushbu Siyosatning alohida bandlari O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga zid bo'lsa, ushbu bandlar o'z kuchini yo'qotadi va ushbu bandlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari normalariga amal qilinadi.



08.10.2025

YURIDIK XULOSA
(ichki qoidani huquqiy ekspertizadan o'tkazish to'g'risida)

Toshkent shahar

“07” _____ 10 _____ 2025 yil

Ekspertiza o'tkazuvchi: “Open bank” aksiyadorlik jamiyatning (keyingi o'rinlarda “Bank” deb yuritiladi) Yuridik boshqarmasi.

Ekspertizadan o'tkazilgan me'yoriy hujjat nomi: “Open bank” aksiyadorlik jamiyatining komplayens tavakkalchiligini boshqarish siyosati (keyingi o'rinlarda “ichki qoida” deb yuritiladi).

Ekspertiza o'tkazishda foydalanilgan qonunchilik va me'yoriy hujjatlar: O'zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonunlari, Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo'yiladigan talablar to'g'risida nizomi va boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlari, hamda “Open bank” aksiyadorlik jamiyatning ustavi va boshqa ichki me'yoriy hujjatlar (keyingi o'rinlarda “qonunchilik va me'yoriy hujjatlar”).

Mazkur ichki qoida qonunchilik va me'yoriy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, Bankning komplayens tavakkalchiligini boshqarishning umumiy qoidalarini, maqsadini, vazifalarini, uslublarini hamda tizimini belgilab beradi.

Ushbu ichki qoida ishlab chiqishda qonunchilik texnikasi qoidalariga rioya qilingan.

Mazkur ichki qoida, agar unda boshqa muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, Bankning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan kunning ertasidan kuchga kiradi.

Ushbu ichki qoidaga o'zgartirish va qo'shimchalar Bankning Kuzatuv kengashining qarori asosida kiritiladi.

Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlarida ishlab chiqilishi belgilangan ichki qoidalar, shuningdek ularga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar tijorat banklari tomonidan tasdiqlangandan so'ng 15 (o'n besh) kun ichida Markaziy bankka taqdim etilishi kerak.

“Open bank” aksiyadorlik jamiyatning

Yuridik boshqarmasi boshlig'i

S.I. Salimov